

THE CRISIS OF THE PARTHIAN STATE AND THE CONDITIONS OF THE COME TO POWER OF THE SASSONIAN STATE

*O‘zMU tarix fakulteti tarix yo‘nalishi
2-kurs talabasi Orzubek O‘ralov*

*Tel: +998-99-500-75-68
e-mail: orzubekurolov06@gmail.com*

Abstract. This article analyzes the conditions of the crisis of the Parthian state and the rise to power of the Sasanian state. The Parthian Empire's political instability, economic difficulties, and failures to combat external threats are considered factors that led to its downfall. The article also explores the process of the rise of the Sassanids and the formation of new political structures that led them. In the historical context, the rise to power of the Sasanian state played an important role in unifying the country and restoring centralized governance. The studied processes, the relationship between the Parthians and the Sasanians, also help to understand the impact of these historical changes on the region.

Key words. Political crisis, Roman-Parthian war, political union, Hormzurd battle Ardashir I, Arsakids, Sassanids

КРИЗИС ПАРФЯНСКОГО ГОСУДАРСТВА И УСЛОВИЯ ПРИХОДА К ВЛАСТИ САССОНСКОГО ГОСУДАРСТВА

Абстрактный. В данной статье анализируются условия кризиса Парфянского государства и прихода к власти Сасанидского государства. Политическая нестабильность Парфянской империи, экономические трудности и неспособность бороться с внешними угрозами считаются факторами, приведшими к ее падению. В статье также исследуется процесс возвышения Сосанидов и формирования новых политических структур, которые ими руководили. В историческом контексте приход к власти Сасанидского государства сыграл важную роль в объединении страны и восстановлении централизованного управления. Изученные процессы, взаимоотношения парфян и сасанидов также помогают понять влияние этих исторических изменений на регион.

Ключевые слова. Политический кризис, римско-парфянская война, политический союз, Хормзурдская битва, Ардашир I, Аршакиды, Сасаниды

ERONDA PARFIYA DAVLATINING INQIROZI VA SOSONIYLAR SULOLASINING HOKIMIYATGA KELISH SHART – SHAROITLARI

Annotatsiya. Ushbu maqola Parfiya davlatining inqirozi va Sosoniylar sulolasining hokimiyatga kelish shart-sharoitlarini tahlil qiladi. Parfiya imperiyasining siyosiy beqarorligi, iqtisodiy qiyinchiliklar va tashqi tahdidlarga

qarshi kurashdagi muvaffaqiyatsizliklar uning qulashiga olib kelgan omillar sifatida ko‘rib chiqiladi. Maqola, shuningdek, Sosoniylarning kuchayishi va ularga rahbarlik qilgan yangi siyosiy tuzilmalarning shakllanishi jarayonini o‘rganadi. Tarixiy kontekstda, Sosoniylar davlatining hokimiyatga kelishi, mamlakatni birlashtirish va markazlashgan boshqaruvni tiklashda muhim rol o‘ynagan. O‘rganilgan jarayonlar, Parfiya va Sosoniylar o‘rtasidagi munosabatlar, shuningdek, bu tarixiy o‘zgarishlarning mintaqadagi ta’sirini anglashga yordam beradi.

Kalit so‘zlar. Siyosiy inqiroz, Rim-parfiya urushi, siyosiy ittifoq, Hormzurd janggi Ardashir I, Arshakiylar, Sosoniylar

Kirish. Eron davlatchiliga tarixidagi yirik imperiyalardan biri sanalgan Parfiya davlatining inqirozi davriga kelib Old Osiyodagi siyosiy vaziyat ancha o‘zgarishga uchragan edi. Fors davlatchiliga qariyb besh asr davomida hokimiyatda turgan ko‘chmanchi skif, ayrim manbalarda parn qabilasiga mansub¹, deb hisoblanadigan arshakiylar sulolasining va uning imperiyasi zaiflashishi hokimiyatga sharqiylar eroniy tilga mansub zodagon qatlaming hokimiyatga kelishiga intilishlari kuchaydi. Natijada markaziy hokimiyatning zaiflashuviga olib keldi. Shuningdek, bu davrda Yaqin Sharq mintaqasida o‘z gegemonligini o‘rnatishga urinayotgan Rim imperiyasining tinimsiz hujumlari sabab mamlakatning tanazzuli yanada tezlashib ketdi. Endi, bu vaziyatda davlatni birlashtirish va uni qayta oyoqqa turg‘izish real zaruriyatga aylandi. Bu vaziyatda siyosiy maydonga mahalliy zodagonlardan Sosoniylar xonadoni vakillari siyosiy boshqaruvni o‘z qo‘liga oldi va ushbu tarixiy ish sosoniyzoda Ardashirning gardaniga tushdi.

Adabiyotlar tahlili. Ushbu davr arixiga oid bir qancha manbalar mavjud. Musulmon tarixchilaridan Abulqosim Firdavsiy², Nizomulmulk³ Shu biln birga pargiyaliklar ustidan qozonilgan g‘alaba haqida arman agafangellaridan ham materiallar yetib kelgan⁴. Shu bilan birga sosoniylar sulolasi tarixi bilan shug‘illangan ko‘plab tadqiqotchilar, jumladan Turoj Daryoyi⁵, M.Mochalov, D.Polejayev⁶, S.Martin⁷ kabi olimlarning ham sosoniylar va Parfiya munosabatlari arshakiylar sulolasining inqirozi haqida ma’lumotlar yetib kelgan.

Tahlil va natijalar. Milodiy III asrning boshlarida Parfiya inqirozi mamlakatning har tomonlama zaiflashishiga olib keldi. Mamlakatning tanazzuliga bir qancha omillar ta’sir ko‘rsatayotgan edi.

¹ Khodad Rezakhani. Arsacid empire. // <https://iranologie.com/the-history-page/the-arsacid-empire/>

² Абулқосим Фирдавсий. Шоҳнома. Таржимонлар III. Шомуҳаммадов ва б. Т.: Ўзбекистон, 2018. Б 700

³ Низомулмулк. Сиёсатнома. Форс тилидан таржима: Шодмон Воҳид, Афтондил Эркинов. Т.: Янги аср авлоди, 2008. Б 240

⁴ О‘zbekiston tarixi xrestomatiyasi .II jild. mas’ul muharrirlar.A.Ahmedov, Sh.Pidayev, N.Toshev.Т.: O‘zbekiston, 2019. 382 b

⁵ Daryeye. T. Ardashir and the Sasanians’ rise to power// ANABASIS STUDIA CLASSICA ET ORIENTALIA.2010. № 1. P 236 – 255

⁶ Мочалов.М., Полежаев.Д. держава Сасанидов. 224-652 годы. Москва.: Ломоносовъ, 2016. С 284

⁷ Sicker, Martin. "The Struggle over the Euphrates Frontier" :The Pre-Islamic Middle East. Greenwood Publishing Group,2000. 169 p

Bosh omillardan biri mamlakat hududi bo‘ylab qo‘zg‘olonlar boshlanib , mamlakat ichki jihatdan zaiflashgan edi. Parfiya hukmdori Artaban II (milodiy 10-38 yillar)ning davrida Parfiyaning chekka viloyat qo‘zg‘oloni bilan muvaffaqiyatli kurashib, ukasi Vonon II bilan nazorat qilish uchun kurashda g‘alaba qozongan bo‘lsa-da, Parfiyaning sharqiy va g‘arbiy chegaralaridagi qarshiliklarni bostirishga kuchi yetmay qolgan edi.

Ikkinchidan, imperiyaning g‘arbiy chegarasida Rim legionlari paydo bo‘lib, tez-tez hujumlar uyushtirib turgan edi. Bunga asosiy sabab mamlakatning sharqiy chegaralarini daxlsiz holatda ushlab turish edi. Biroq, dastlabki yurish natijalari besamar kechgan edi. Mamlakatning zaiflashganidan foydalangan Rim imperiyasi Parfiyaga hujumni yanada kuchaytirdi. Milodiy 115-yilda Rim imperatori Trayan Parfiyaga bostirib kirdi va mamlakatning ancha yirik hududi sanalgan Mesopotamiyani bosib oldi, bir paytlar Salavkiylar davrida poytaxt bo‘lgan Salavkiya va yirik markaziy shaharlardan biri bo‘lgan Ktesifoni talon-taroj qildi⁸. Biroq Rim bu bilan chegaralanib qolmadi. Rimliklarning keying oqimi esa milodiy 165-yilga to‘g‘ri keladi va bu paytda Parfiya taxtida Vologaz IV (milodiy 147-191) turgan edi . Podsho Vologaz III davri Parfiyaning nisbatan barqarorlashgan davri sanaladi. mamlakat o‘z hududini tiklashga urinadi va buning uddasidan chiqadi. Parfiya katta kuch bilan Kichik Osiyoning markaziy qismi sanalgan Kappadokiyani va Suriyani egallab oladi. Trayan davridagi Mesopatamiya mulklarini qayarib olishga muvaffaq bo‘ladi⁹. Tabiiyki Kichik Osiyo va Suriyaning egallanishi Rim imperiyasining Old Osiyodagi yirik mulklarining yo‘qotishiga sabab bo‘lgandi va Rim imperiyasi uchun Osiyodagi yirik yo‘qotish bo‘ldi. Bunga chidab tura olmagan Rim yana Parfiyaga yurish qiladi. Bu safar imператор Lutsius Ver bir nechta janglarda g‘alaba qozonadi va Salavkiya va Ktesifoni yana bir marta egallahsha muvoffaq bo‘ladi¹⁰. Rim legion jadal ildamlagan holda Parfiyaning markaziy qismlariga, masalan, Midiya hududlariga ham kirib borishga erishdi¹¹. Ko‘p o‘tmay Parfiya rimliklarni quvib chiqarishga muvaffaq bo‘lishdi. Bunga sabab Parfiya bo‘ylab tarqalgan chechak epidemiyasi edi. Rim legionida chechak keskin avj olishi oqibatida armiyaning katta qismining qirilib ketishi natijasida qolgan-qutgan legion rimga qaytib ketishga majbur bo‘ldi¹². Ammo ular milodiy 195-yilda Salavkiya va Bobilni egallab olgan imператор Septimius Sever davrida Mesopotamiyaga navbatdagi Rim bosqini boshlandi, keyin esa 197-yilda yana Ktesifoni talon-taroj qildi. Bu urushlar Rimning Shimoliy Mesopotamiyani, Nisibis va Singara atrofidagi hududlarni egallahsha olib keldi¹³.

⁸ Patrick Scott Smith. Parthia (Empire) \ \ [https://www.worldhistory.org/Parthia_\(Empire\)/](https://www.worldhistory.org/Parthia_(Empire)/)

⁹ Zeidan.A. Vologases IV \ \ <https://www.britannica.com/place/Parthia>

¹⁰ Patrick Scott Smith. Parthia (Empire) \ \ [https://www.worldhistory.org/Parthia_\(Empire\)/](https://www.worldhistory.org/Parthia_(Empire)/)

¹¹ Zeidan.A. Vologases IV \ \ <https://www.britannica.com/place/Parthia>

¹² Sicker, Martin. "The Struggle over the Euphrates Frontier" : The Pre-Islamic Middle East. Greenwood Publishing Group,2000. 169

¹³ Brian.C. "The Severan Dynasty" Cambridge: Cambridge University Press,2005.337 – 338 p

Imperator Septimius Severning ushbu g‘alabasiga Rim imperiyasida boshlanib ketgan oziq-ovqat tanqisligi vaziyatni boshqa tarafga burib yubordi. 198-yilda legion yana Rimga qaytib ketdi. Mazkur urushlar oqibatida Mesopotamiya qisqa 83 yil ichida uchinchi marta vayron bo‘ladi va Parfiya imperiyasi jiddiy zaiflashadi¹⁴. Imperator Karakalla Parfiyaga yana hujum qildi. Bu Parfiyaning real davlat sifatida Rim bilan oxirgi janggi edi¹⁵

Shuningdek arshak urug‘iga mansub bo‘lgan hukmron tabqa vakillarining noib bo‘lib turgan hududlarini mustaqil mulk sifatida boshqarishga urina boshladи. Bunday yirik harakatlar Girkaniya, Marg‘iyona, Sakiston, Elimaida va Parsa hokimlari tomonidan amalga oshirilgan¹⁶. Forslarga mansub bo‘lgan zodagon oilalaridan biri bo‘lgan Soson nomi bilan tanilgan Istaxr shahari zodagonlari vakillari Parfiyadan mustaqillikka intila boshlashgan edi. Biroq, imperiyadagi siyosiy vaziyat va Rimning tinimsiz hujumini qaytara olmayotgan Arshakiylarning boshqaruviga ishonchszlik kayfiyati paydo bo‘la boshlagan edi. Soson urug‘ining yorqin vakili Ardashir (Bizga Ahamoniylar taxtining Artaxshas nomini eslatadi va, albatta, yaqinda Pers shohi Ardashir/Ardaxshahr) Eron davlatchiligidagi keskin burlish yasaydi.

Parfiyada Arshakiylar xonadoning oxirgi vakili Artaban V va Ardashir o‘rtasida 224 yilda hal qiluvchi jang bo‘ladi. Tarixda Ormozgan janngi deb nomlangan to‘qnashuvda Ardashirning foydasiga hal bo‘ladi. Ushbu jangda ikkala tomonda ham yirik qo‘sishinlar mavjud bo‘lgan. Artaban V Kavkazortida hokimiyatda turgan skif sulolalari bilan ittifoq tuzishga harakat qiladi va buning uddasidan chiqadi. Manbalarda Armanistonda hokimiyatni qo‘lga olgan Arshakiylar sulolasiga mansub hukmdaro Xusravning Erondagи qavmdoshlariga yordami haqida ma’lumot keladi¹⁷. Xusrav Artbanni qo‘sishin va moliyaviy ta’midot jihatidan qo‘llab quvvatlaydi. Podsho Artaban V armiyasining katta qismi Ardashirning tarafiga o‘tib ketganligini haqida agafangelda bayon etilgan¹⁸. Bunga sabab sifatida armiyani birlashtirib turuvchi kuchning bo‘lmaganligi Artaban V davriga kelib mamlakatning katta qismi deyarli mustaqil bo‘lib ketgan va Artaban V ning hokimiyatni deyarli tan olinmaydigan darajaga kelib qolgan edi. Natijada armiya ichida ixtiloflar yuzaga kelishiga olib kelgan

Ardashir I ning Artaban bilan janggi bo‘lgan Ormzurd shahri to‘g‘risida yetarli ma’lumotlar mavjud emas. Bal’amiyning tugallanmagan asariga ko‘ra, jang Arrajon va Ahvaz yaqinida joylashgan mashhur Ram-Hurmoz shahrining boshqa nomi bo‘lgan Xosh-Hurmoza bo‘lgan. Mazkur joy nomining jang bo‘lib o‘tgan Ormzurd bilan bir joy nomini anglatishi haqida taxminlar mavjud. Ram-Hormoz shahri bugungi

¹⁴ Patrick Scott Smith. Parthia (Empire) // [https://www.worldhistory.org/Parthia_\(Empire\)](https://www.worldhistory.org/Parthia_(Empire))

¹⁵ Ross.C. "The Battle of Nisibis, AD 217". Ancient Warfare. 3 (5): 29–35. Archived from the original on 2016-04-29.

¹⁶ Patrick Scott Smith. Parthia (Empire) // [https://www.worldhistory.org/Parthia_\(Empire\)](https://www.worldhistory.org/Parthia_(Empire))

¹⁷ O ‘zbekiston tarixi xrestomatiyasi .II jild.\ mas’ul muharrirlar.A.Ahmedov, Sh.Pidayev, N.Toshev.T.: O ‘zbekiston, 2019. 382 b

¹⁸ O ‘sha asar. 383 b

kungacha saqlanib qolgan va Ahvazdan 65 km sharqda, Zagros zanjirining Bengestan tog‘ining shimoli-sharqiy qismini tashkil etuvchi tepaliklar etagidagi keng tekislikda joylashgan shahar sanaladi. Shahboziyning so‘zlariga ko‘ra, “yaqin atrofdagi tekislik otliq qo‘sishinlar jangi uchun juda mos keladi. Shuningdek, at-Tabariyning yozishicha, Ardashir I va Artaban V mihr (aprel) oyining oxirida Hormozdgonda uchrashishga kelishib olganlar. Shunga qaramay, Ardashir I tekislikning qulay joyini egallah uchun vaqtidan oldin bu erga bordim. U yerda o‘zini va qo‘sishinlarini himoya qilish uchun ariq qazdi¹⁹. Shuningdek, Ardashir qo‘shani bilan Ormogzondagi suv havzalaridan birini ham egallab oldi. Ardashir I qo‘sishlari 10 000 otliq askardan iborat bo‘lib, ularning ba’zilari rimliklarnikiga o‘xshash moslashuvchan zanjirli zirh kiygan edi. Artaban V ko‘p sonli qo‘singa ega bo’lsa-da ammo ular noqulay bo‘lgan zirhli Sovutlar kiyganligi sababli jang qilishi ancha unumsiz va qiyin bo‘lgan. Ardashir I ning o‘g‘li va merosxo‘ri qoyatosh relyeflarida tasvirlanganidek jangda qatnashgan²⁰ Jang 224-yil 28-aprelda bo‘lib o‘tdi, Artaban IV mag‘lubiyatga uchradi va o‘ldiriladi, bu Arsakidlar davrining tugashi va 427 yillik Sosoniylar hukmronligining boshlanishini anglatadi²¹.

Xulosa. Parfiya davlatining inqirozi va Sosoniylar davlatining hokimiyatga kelish shart-sharoitlari chuqur tahlil qilingan. Parfiya imperiyasining ichki siyosiy beqarorligi, iqtisodiy muammolar va tashqi tahdidlarga qarshi kurashishdagi muvaffaqiyatsizliklari uning qulashiga olib keldi. Bu davrda mamlakatda sodir bo‘lgan urushlar, qabilalar o‘rtasidagi nizolar va o‘zaro raqobatlar, hokimiyatni ushlab turishdagi qiyinchiliklar, Sosoniylarning ta’sirini kuchaytirishga yordam berdi.

Sosoniylar davlatining hokimiyatga kelishi, yangi siyosiy va ijtimoiy tuzilmalarni shakllantirish jarayonida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Ular, o‘zlarining kuchli rahbarligi va markazlashgan boshqaruva tizimi orqali mamlakatni birlashtirishga muvaffaq bo‘lishdi. Ushbu inqirozdan keyingi davrda Sosoniylar davlatining shakllanishi, nafaqat Janubiy O‘rta Osiyoda, balki butun Sharqiy O‘rta yer dengizi mintaqasida muhim tarixiy o‘zgarishlarni keltirib chiqardi. Kelajakdagagi tadqiqotlar, Parfiya va Sosoniylar o‘rtasidagi aloqalarni, shuningdek, bu tarixiy jarayonlarning mintaqqa rivojiga ta’sirini yanada chuqurroq o‘rganishga imkon beradi

¹⁹ Al-Tabari, Abu Ja‘far Muhammad ibn Jarir (1985–2007). Ehsan Yar-Shater (ed.). *The History of Al-Tabarī*. Vol. 40 vols. Albany, NY: State University of New York Press.

²⁰ Al-Tabari, Abu Ja‘far Muhammad ibn Jarir (1985–2007). Ehsan Yar-Shater (ed.). *The History of Al-Tabarī*. Vol. 40 vols. Albany, NY: State University of New York Press.

²¹ Shahbazi, A. Shapur (2004). "Hormozdgān". *Encyclopaedia Iranica*, Vol. XII, Fasc. 5, pp. 469–470